

HOZIRGI FORS TILIDA SUFFIKSAL ALLOMORFLAR YORDAMIDA YASALGAN HOLAT VA TARZ RAVISHLARI TAHLILI

Saidoripova Dilorom Saidaxmad qizi

TDSHU Eronshunoslik va afg'onshunoslik oliy maktabi o'qituvchisi

d-mirzayeva@mail.ru

ARTICLE INFO.

Kalit so'zlar: suffiks, allomorf, suffiksallomorf, affiksatsiya, ravish yasovchi suffiksallomorf, yasama ravish, tarz ravishi va holat ravishi.

Annotation

Ushbu maqolada hozirgi fors tilida suffiksallomorflar orqali yasalgan holat va tarz ravishlarining shakllanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda Muhammad Mirkiyoniyning "yesshā-ye šab-e čelle" (Chilla kechasi qissalari) asari lingvistik jihatdan tahlil markaziga olinib, undagi suffiksallomorflar fonologik va morfologik mezonlar asosida o'rganiladi. Ravish yasovchi qo'shimchalarning allomorfik variantlari, ularning o'zaro o'rinliligi, semantik yuklamalari va uslubiy vazifalari batafsil tahlil etiladi. Maqola fors tilidagi allomorf hodisasining amaliy ko'rinishlarini ko'rsatib, ularning grammatik funksiyasi va stilistik rolini aniqlashtirishga qaratilgan. Natijada, allomorflarning fors tilidagi morfologik tizimdagi o'rni va ahamiyati ilmiy asoslangan misollar orqali yoritiladi.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> / © 2025 LWAB.

Tilshunoslik ilmida o'z yechimini kutayotgan juda ko'plab masalalar mavjud. Ana shunday masalalardan biri bo'lgan allomorflik hodisasi ham ancha vaqtdan beri dunyo tilshunoslarining diqqatini tortib kelmoqda. Fors tilida suffiks orqali sifat yasash sarmahsul usul hisoblanadi. Mazkur maqolada L.S.Peysikov¹ hamda Iron Kalbosining² forsiy suffikslar bo'yicha nazariy yondashuvlariga tayanildi. Shu asosda allomorfi mavjud bo'lgan ba'zi suffikslar tanlab olinib, ularning o'zaro o'rin almashinib kela olish xususiyatiga ko'ra 2 guruhga ajratildi: 1) O'zaro o'rin almashib kela oladigan affiksallomorflar hamda 2) O'zaro o'rin almashib kela olmaydigan affiksallomorflar.

Allomorf tilshunoslikda tushunchasiga tuli xil qarashlar mavjud bo'lib, ba'zi olimlar allomorfni bir morfemaing variantlari shaklida o'rganishsa, ba'zilar morfologik alternatsiyalar, yana boshqa olimlar leksik morfemaing alternantlari yoki fonemaing variantlashuvi hodisasi kabi tushunchalar bilan atashadi.

Allomorf tushunchasiga O'zbekistonlik tilshunos olim Azim Hojiyev³ allomorfga morfemaing variantlari sifatida qaraydi va unga quyidagicha ta'rif beradi: "Morfemaing har qanday qurshovda ham biri o'rnida ikkinchisini qo'llash mumkin bo'lgan ko'makchi morfema morfemaing variantlari hisoblanadi. Masalan, o'zbek tilidagi -day, -dek morflari erkin qo'shilaveradi. Demak, variant holatida

¹ Пейсиков Л.С. Очерки по словообразованию персидского языка. - М.: Изд-во МГУ, 1973

² دکتر ایران کلیاسی. ساخت اشتقاقی واژه. تهران. 1371

³ Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. T.: 2009. B -21.

gulday-guldek kabi affiksning variantlari affiksning fonetik tovush tarkibi

Azim Hojiyevning fikriga ko'ra, bir morfemaning variantlari ya'ni allomorflar o'zaro o'rin almasha oladilar, ammo fikrga tilshunoslardan M.T. Irisqulov hamda R. Rasulovlar qarshi chiqishadi, ya'ni allomorflar o'rin almasha olishmaydi degan fikrni ilgari surib, buni quyidagicha izohlaydi: "Allomorf morfemaning varianti bo'lib, alohida morf sifatida o'ziga mos, muvofiq keladigan so'z shakli tarkibidagina ishtirok etadi. Allomorf sifatida kuzatiladigan har bir morning qo'llanilish imkoniyati chegaralangan bo'lib, u faqat o'zi uchun qulay bo'lgan sharoitda yuzaga chiqadi, tanlab qo'shiladi. Morfning – allomorfning biri o'rnida ikkinchisi ishlatilmaydi"⁴. Olim o'z fikrining isboti tariqasida o'zbek tilidagi ushbu misollarni keltiradi: tonggi – tongki, kechki – kechg'i. Olim o'z nazariyasini davom ettirarkan, "bunga fonetik vaziyat, fonetik shakl va semantika yo'l qo'ymaydi. Demak, allomorflar qo'llanadigan so'z formalari qanday qabul qilingan bo'lsa, shunday shaklda namoyon bo'ladi" deya ta'kidlaydi.

Tilshunos olimlarning fikridan anglashilandiki, allomorf bu bir morfemaning variantlari, lekin shu o'rinda bahsli savol o'rta tashlanadi: allomorflar o'zaro o'rin almashina olishadimi yoki yo'q? Bu savolga javob topish boshqa tilshunoslarning ham nazariya va qarashlarini o'rganib chiqishni taqozo etadi.

Ko'rinib turibdiki, har bir olimning o'z fikri va qarashlari hamda fikrlariga isbotlari mavjud. Ko'tarilgan masalaning yechimini topish uchun Rus tilshunos olimi L.S. Peysikovning allomorf tog'risidagi fikrlarini tahlil qilamiz. Olim allomorf tushunchasiga leksik morfemaning alternantlari deya ta'rif berib, unga quyidagicha izoh beradi: "Bir morfemaning allomorfi bo'lishi uchun ularda birlashtiruvchi asosiy belgi, ya'ni umumiy funksional-semantik xususiyat mavjud bo'lishi lozim. Ma'no va funksiya umumiyligi bir allomorfema tarkibida joylashsa, qolgan mezonlar nisbiy xarakterga ega bo'lib, o'xshashlik masalalarini aniqlashda yordamchi vazifani bajaradi. Ma'no va vazifalar umumiyligi turli allomorflarni birlashtirish imkonini beradi. Demak, ikki yoki undan ortiq elementlar bir morfemaning allomorfi bo'lishi mumkin"⁵. Shuning olim allomorflarlik hodisasi uchun quyidagi talablarni qo'yadi:

- 1) bir ma'no va vazifaga ega bo'lsalar;
- 2) o'xshash qurilmalarda o'zaro o'rin almasha olsalar;
- 3) faqat o'zi ishlatiladigan o'rinlarga ega bo'lsalar;
- 4) umumiy va o'xshash tashqi ko'rinishga, nisbiy fonetik umumiylikka ega bo'lsalar.

Yuqoridagi tilshunos olimlarning nazariya va qarashlaridan tahlil qilgan holda aytish mumkinki, Bundan kelib chiqadiki, affiksall allomorflar so'z tarkibida o'zaro o'rin almashinib kela oladigan hamda o'zaro o'rin almashinib kela olmaydigan allomorfarga bo'linadi.

So'z yasovchi affiksall allomorflar bu so'z yasovchi bir morfemaning turli variantlari hisoblanadi. Affiksatsiya jarayonida nafaqat uslubi, fonologik moslashuviga qarab affiksall allomorflar birining o'rniga boshqasini qo'llash mumkin. Bunda bir yasovchi morfema ilmiy yoki badiiy uslubdagi so'z yasasa, ikkinchi so'z yasovchi allomorf og'zaki uslubdagi so'zni yasashi mumkin.

Fonologik jihatdan so'z yasash jarayonida so'z yasovchi affiksall allomorflar bir-birining o'rnida kela olmaydi. Chunki ba'zan bir so'zda ikkita unli qator kelmaydi, agar ikki unli qator kelib qolsa, bunda bo'shliq paydo bo'ladi. Bu bo'shliqni to'ldirish uchun bir undosh tovush orttiriladi. Ushbu fikrlarning isbotini ravish yasovchi suffiksall allomorflarning tahlili asnosida ko'rib chiqamiz.

Bu qismda fors tilidagi ravish yasovchi suffiksall allomorflarning funksional-semantik xususiyatlari hamda kontekstda ishlatilish masalalarini ko'rib chiqish maqsadida holat tarz va payt ravishlarini

⁴ Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. T.: 2010. B – 221.

⁵ Пейсиков Л.С. Очерки по словообразованию персидского языка. - М.: Изд-во МГУ, 1973. Б - 29

yasovchi ¹ [an] uning ¹ [ā] suffiksallor allomorflarini Muhammad Mirkiyoniyning “yessēhā-ye šab-e čelle” (Chilla kechasi qissalari) asarida keltirilgan misollar orqali tadqiqqa tortildi.

¹ [an] suffiksining ¹ [ā] allomorfi mavjud bo‘lib, ular arabiy “fatha” va “damma” qo‘shichalari hisoblanadi. Asl forsiy yoki boshqa tillardan o‘zlashgan o‘zaklarga qo‘shilib, holat, tarz va payt ravishlarini yasaydi. Masalan:

Holat ravishi:

سوما [sevvoman] - uchinchidan

تلفناً [telefonan] – telefon orqali, telefonda

مخصوصاً [maxsusan] – xususan, asosan, ayniqsa

مخصوصاً تو که با فراهم کردن این قفس بزرگ، نشان داری که آمل و آرزوهای خیلی بزرگی هم داری.

*Maxsusan to ke bā farāham kardan-e in yafas-e bozorg nešān dāri ke āmāl o ārzuḥā-ye xeyli bozorgi ham dāri.*⁶

Ayniqsa, siz, ushbu katta qafasni yasab, o‘zingizda katta umid va intilishlaringiz borligini ko‘rsatasiz.

اشتباهاً [eštebāhan] – xato bilan, adashib

حتماً [hatman] - albatta, shubhasiz

حتماً می خواستی سلاح و سپاهی با پول طلا ها فراهم کنی.

*Hatman mi xāsti salāh va sepāhi bā pul tellā hā farāham koni*⁷⁸.

Shubhasiz sen qurol va qo‘shinlarni oltin pul bilan qo‘lga kiritmoqchi bo‘lgansan.

تقریباً [tayriban] – tahminan

یقیناً [yayinan] - shaksiz, aniq, aynan

قطعاً [yat’an] – qat’iyan, qat’iyat bilan

بدأ [badan] - keyinchalik

آشکاراً [āškāran] – oshkora, ochiq-oydin

ابداً [abadan] – hech qachon

اصلاً [aslan] – aslo

مطلقاً [motlayan] - mutlaqo

اقلاً [aylan] – avvallambor, avval

بگذار اقلأ تنی به آب بزنم. اقلأ این گرما و خستگی راه را از تنم بیرون کنم.

*Begozār aylan tani be āb bezanam. Aylan in garmā va xastegi-ye rāh rā az tanam birun konam*⁹.

Kel, avval cho‘milib olay, avvallambor, yo‘lning issig‘i va charchog‘ini tanamdan chiqaray.

Payt ravishi :

ابداً [abadā] – hech qachon

مطلقاً [motlayā] – mutlaqo

⁶ محمد میرکیانی. قصه های شب چله. تهران. 1337. ص 96.

⁷ O‘sha asar. B – 95.

⁸ O‘sha asar. B – 97.

⁹ محمد میرکیانی. قصه های شب چله. تهران. 1337. ص 68.

حالا [hālā] – hozir, ayni paytda, endi

حالا حق ندارم به خاطر این خیانت سر تو را از تنت جدا کنم.

*Hālā haq nadāram be xāter-e in xiyānat sar-e to rā az tanet jodā konam*¹⁰.

Ayni paytda shu xiyonating uchun boshingni tanangda judo qilishga haqqim yo‘q.

مبادا [mabādā] – mabodo, balki

مرد کاسب، این قرار را با خودش گذاشت و از خانه بیرون رفت، در حالی که از سایه خودش می ترسیدم و نگران بود که مبادا یکدفعه سر کله یکی از طلبکار ها پیدا شود.

*Mard-e kāseb, in yarār rā bā xodeš gozāšt va az xāne birun raft, dar hāli ke az sāye-ye xodeš mi tarsid va negarān bud ke mabādā yekdaf’e sar-e kolle-ye yeki az telbakār ha peydā šavad*¹¹.

Kosib yigit o‘z fikrida qoldi va uyini tark etdi, hatto o‘z soyasidan ham qo‘rqardi va mabado birdan talabgorlardan biri paydo bo‘lib qolar deb kutardi.

ʾ [an] hamda ʾ [ā] suffiksallorflari o‘zaro o‘rin almashib kela oladi. Masalan:

ابدأ [abadā] – hech qachon

مطلقاً [motlayān] - mutlaqo

Xulosa. Holat tarz va payt ravishlarini yasovchi ʾ [an] uning ʾ [ā] suffiksallorflari Muhammad Mirkiyoniyning “*yessēhā-ye šab-e čelle*” (Chilla kechasi qissalari) asarida keltirilgan misollar orqali tadqiqqa tortilgan.

Umumiy xulosa sifatida shuni aytish mumkinki,

1. Fors tilida ravish yasovchi suffiksallorflar morfeumlarda ularning turli xil allomorflari kuzatiladi.
2. Fors tilida ravish yasovchi suffiksallorflar funksional va semantik jihatidan o‘zaro bir-biriga yaqin vazifalarni bajaradi.
3. Fors tilida ravish yasovchi suffiksallorflar uslubiy jihatdan turli uslublarga mansub bo‘ladi. Ammo ba’zi holatlarda bir asos tarkibida almashinib qo‘llaniladigan ravish yasovchi suffiksallorflardan yasalgan so‘zlar uslub jihatidan farq qilmaydi.

Demak, ravish yasovchi suffiksallorflar orqali yasalgan yasama ravishlar fors tili lug‘at boyligini yanada boyitishga hamda turli fonetik va stilistik variantlarining ko‘payishiga sabab bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar

1. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. T.: 2010. B – 221.
2. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. T.: 2009. B –21.
3. Пейсиков Л.С. Очерки по словообразованию персидского языка. - М.: Изд-во МГУ, 1973
4. دکتر ایران کلباسی. ساخت اشتقاقی واژه. تهران. 1371
5. محمد میرکیانی. قصه های شب چله. تهران. 1337. ص 96.

¹⁰ O‘sha asar. B - 95

¹¹ O‘sha asar. B -73